



## **“Orient Finans” XATBda talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarni ochish va xizmat ko‘rsatish umumiy shartlariga qo‘shilish shartnomasi**

“Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – “Bank”) va mazkur shartnomaga qo‘shilish uchun Ariza (keying o‘rinlarda – “Ariza”) taqdim etish orqali “Orient Finans” XATBda talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarini ochish va xizmat ko‘rsatish umumiy shartlarini (keying o‘rinlarda – “Shartnoma”) qabul qilishini ifoda etgan jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda - “Omonatchi”) quyidagi kelishuvga keldilar:

### **1. SHARTNOMA PREDMETI VA SHARTNOMA TUZISH TARTIBI**

1.1. Mazkur shartnoma Bankda talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarini ochish va xizmat ko‘rsatish standart shartlarini belgilab beradi hamda Bank va Omonatchi o‘rtasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobraqamida (keying o‘rinlarda – “Omonat”) mablag‘larni saqlash bo‘yicha munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 360-moddasida belgilangan tartibda, Omonatchining Shartnomaga qo‘shilishi shaklida tuziladi.

1.3. Shartnoma bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlar bajarilganda kuchga kiradi va tuzilgan hisoblanadi:

- Omonatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatini Bankka taqdim etganda;
- Omonatchi Bank tomonidan o‘rnatilgan shakldagi Arizani Bankka to‘ldirilgan va imzolangan holda taqdim etganda;
- Omonatchi Bank kassasi orqali yoki naqdsiz shakldagi ma‘lum bir miqdordagi mablag‘ni omonatga kirim qilganda.

1.4. Omonatchi tomonidan Arizaning to‘ldirilishi va imzolanishi Shartnomaning barcha shartlari to‘liq va so‘zsiz qabul qilinganligi tasdig‘ini anglatadi. Arizani imzolashda Omonatchi tomonidan Shartnoma shartlarini o‘zgartirish bo‘yicha bildirilgan har qanday e‘tirozlar yuridik kuchga ega emas.

1.5. Mijozlarni tanishtirish maqsadida Shartnoma matni va Tariflar (amaldagi tahriri) Bank filiallarining (ofislarining) axborot stendlarida va Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) korporativ saytida joylashtiriladi, hamda Bankning mas‘ul xodimlari ish stolida mavjud bo‘ladi.

1.6. Tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdan oldin Omonatchiga Shartnomaning matni va Bank Tariflari bilan tanishib chiqish imkoniyati taqdim etiladi. Omonatchi bir nusxada Shartnomaning chop etilgan matnini olish huquqiga ega.

### **2. ATAMA VA TUSHUNCHALAR**

#### **Omonat (depozit)**

talab qilinishi bilan oq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘lagan holda yoxud bunday to‘lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi.

<b>Omonatchi</b>	bank bilan tuzilgan bank omonati shartnomasida yoki bank omonat siyosatida nazarda tutilgan shartlar asosida bank bilan kelishilgan holda bankka ma'lum pul mablag'ini o'zi yoki uning nomiga kelgan pul mablag'ini omonatga qo'yuvchi rezident yoki norezident shaxs;
<b>Shaxsni tasdiqlovchi hujjat</b>	Taqdim etuvchini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga nazarda tutilgan pasport/ ID Card yoki boshqa hujjat.
<b>Shartnomaga qo'shilish uchun Ariza (Ariza)</b>	"Orient Finans" XATBda talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarini ochish va xizmat ko'rsatish umumiy shartlariga qo'shilishga Omonatchining xohish-irodasini ifoda etadigan Omonatchi tomonidan to'ldiriladigan va imzoladigan Bankda o'rnatilgan shakldagi Ariza.
<b>Shartnoma</b>	Quyidagi hujjatlar to'plami: mazkur Shartnoma, Shartnomaga qo'shilish uchun Ariza (Ariza Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi)

### **3. OMONAT SHARTLARI**

- 3.1. Omonatni Bankda ochish imkoniyati mavjud bo'lgan valyutada rasmiylashtirish mumkin.
- 3.2. Omonat(lar) summasi hisobini yuritish uchun Omonatchiga tanlangan valyuta(lar)dagi №20206 "Talab qilib olingunga omonat hisobraqam(lar)i" ochiladi.
- 3.3. Omonatga mablag'lar naqd shaklda yoki naqdsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan kiritilishi mumkin.
- 3.4. Omonat muddatsiz bo'lib, omonat qoldig'iga yillik 0% miqdorida foiz to'lab beriladi hamda omonatga cheklanmagan miqdorda mablag'lar qabul qilinadi. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Bankning tashabbusi bilan, hamda Omonatchining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin.
- 3.5. Standart tarzda omonat omonat daftarchasini ochmagan holda rasmiylashtiriladi. Omonatchining xohishiga ko'ra unga omonat daftarchasi taqdim etiladi.
- 3.6. Omonatni rasmiylashtirish, omonatni yopish, omonatdan kirim va chiqim amaliyotlarini bajarish (omонатga naqdsiz shaklda kelib tushgan mablag'larni kirim qilish va foizlarni hisoblashdan tashqari) texnik imkoniyatdan kelib chiqib omonatchilarning barmoq izlari tasdig'i orqali amalga oshiriladi.
- 3.7. Bank Omonatchi tomonidan omonat daftarchasi (agar mavjud bo'lsa) va shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda omonat summasini beradi, u bo'yicha foizlarni to'laydi va Omonatchining omonat hisobraqamidagi mablag'larni boshqa shaxslarga o'tkazib berish haqidagi topshirig'ini bajaradi.

### **4. SHAXSIY MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH**

- 4.1. Ushbu bilan Omonatchi mustaqil, o'z xohish-istagi va manfaatlari yo'lida Bankga noma'lum muddatga o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan, Bank faoliyati uchun, shartnomada ko'rsatilgan shartlarni Bank tomonidan bajarilishi, shuningdek qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar yo'lida foydalanish va ishlov berishga o'zining muddatsiz vaqtga roziligini beradi. Shuningdek, Omonatchi ushbu shartnomani bajarish maqsadida shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga, shuningdek davlat

organlariga qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etilishiga rozilik beradi.

4.2. Har qanday ma'lumotlarni (shaxsiy va / yoki mijozning aloqa ma'lumotlar)ga ishlov berish avtomatlashtirish vositalari yordamida yoki ularsiz amalga oshiriladi, shu jumladan mazkur shartnomaning imzolanishi munosabati bilan Bankka taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, tushuntirish, foydalanish, tarqatish (jumladan Bankning hamkorlariga ham), egasizlantirish, cheklab qo'yish, yo'q qilish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish kiradi.

4.3. Mazkur Shartnomaga qo'shilish orqali Omonatchi quyidagilarga rozilik beradi:

- Bank tomonidan bankka taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlardan Omonatchini ushbu shartnoma doirasida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq har qanday ma'lumotlar to'g'risida xabardor qilish uchun foydalanilishi;
- davlat soliq xizmati organi va boshqa organlarning ma'lumotlarga ishlov berish Markazidagi shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish (olish).

4.4. Omonatchi taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berilishi quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- Omonatchini identifikatsiyalash;
- Omonatchi bilan tuzilgan kelishuv/shartnomalar doirasida olingan majburiyatlarni lozim darajada bajarish;
- Bank bilan tuzilgan kelishuv/shartnomalar doirasida olingan majburiyatlarni Omonatchi tomonidan lozim darajada bajarilishi;
- Egasizlantirilgan ma'lumotlarga asosan statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish;
- Reklama-axborot materiallarini telefon, faksimilya, elektron pochta va boshqa to'g'ridan-to'g'ri aloqalardan foydalanish orqali tarqatish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar.

## **5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **5.1. Bank majburiyatlari:**

- Omonatchiga omonat shartlarini tanishtirish va tushuntirish;
- Omonat rasmiylashtirilgandan so'ng omonat summasini kiritish va omonat bo'yicha operatsiyalar hisobini yuritish uchun Omonatchi nomiga 20206- "Talab qilib olingunga omonat" hisobraqamini ochish;
- Omonatni rasmiylashtirishda, omonatni yopganda, omonatdan kirim va chiqim amaliyotlarini bajarishda (omonatga naqdsiz shaklda kelib tushgan mablag'larni kirim qilish va foizlarni hisoblashdan tashqari) texnik imkoniyatdan kelib chiqib omonatchilarning barmoq izlari tasdig'i orqali amalga oshirish;
- Omonatchining xohishiga ko'ra Omonatchiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan omonat daftarchasini berish;
- Mazkur Shartnoma va omonat shartlariga muvofiq omonatga mablag'larni kirim qilish va mablag'larni qaytarib berish;
- Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni sir saqlanishini ta'minlash, Omonatchi va omonat to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqatgina amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va hollarda taqdim etish.

### **5.2. Bank huquqlari:**

- Omonat bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun omonatchidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat va omonat daftarchasini (agar mavjud bo'lsa) taqdim etishini talab qilish, ularan nusxalar olish, jismoniy shaxslarni identifikatsiyalashda zarur bo'ladigan boshqa ma'lumotlarni olish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida,

Omonatchidan uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

- Ijro hujjatlari kelib tushganda, Omonatchining e'tirozlari bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilanga tartibda choralar (pul mablag'lariga taqiq qo'yish, pul mablag'larini akseptsiz tartibda yechib olish (o'chirish) va boshqalar) ko'rish;
- Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirilayotgan operatsiyalar mijozlar (nerezidentlar) anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan tuzilgan mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- Omonat bo'yicha amalga oshirilgan bank operatsiyalari uchun Bank Tariflarida nazarda tutilgan komission haqlarni undirish;
- Omonatchining kreditlari, mikroqarzlari va lizing bo'yicha qarzdorliklarini so'ndirish uchun bank omonatdan mablag'larni Omonatchining topshirig'isiz hisobdan chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, Bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchi bilan imkoni mavjud aloqa kanallari orqali uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi.
- Bank yangiliklarini, shuningdek omonat bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Omonatchining telefon raqamiga SMS xabar ko'rinishida yoki elektron pochta orqali jo'natma sifatida yuborish;
- Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, agar Omonatchi tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravariga teng yoki undan oshadigan miqdordagi operatsiya, bir kunda 5 marotabadan ortiq amalga oshirilsa Bank omonat bo'yicha operatsiyalarni bir tomonlama 3 ish kuniga to'xtatib qo'yish huquqiga ega.
- Omonatchining hisobraqami bir yildan kam bo'lmagan muddatda harakatsiz va qoldiqsiz bo'lsa, bank mazkur hisobraqamni yopishi va shartnomani bekor qilishi mumkin.

### **5.3. Omonatchi majburiyatlari:**

- Mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilish;
- Omonatni rasmiylashtirishda, omonatni yopishda, omonatdan kirim va chiqim amaliyotlarini bajarishda (omonatga naqdsiz shaklda kelib tushgan mablag'larni kirim qilish va foizlarni hisoblashdan tashqari) texnik imkoniyatlardan kelib chiqib barmoq izlari tasdig'i orqali amalga oshirish;
- Mazkur Shartnomaga muvofiq Bankning talabiga ko'ra so'raladigan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilish;
- Omonat bo'yicha foiz stavkasining miqdori to'g'risida Bankning rasmiy Internet-saytida ([www.ofb.uz](http://www.ofb.uz)) joylashtirilgan axborot bilan davriy ravishda tanishib borish;
- Omonat daftarchasini (mavjud bo'lganda) but va yaxshi holatda saqlash, unga biron-bir ma'lumotlarni kiritmaslik, omonat daftarchasi yo'qolgan taqdirda, bu haqda Bankni yozma ravishda ma'lum qilish;
- O'z manzili va/yoki telefon raqami, shu jumladan uyali telefoni, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjati almashtirilganligi haqida Bankni yozma ravishda xabardor qilish.

#### **5.4. Omonatchi huquqlari:**

- Omonat hisobraqamiga pul mablag'lari qabul qilingandan va kirim qilingandan so'ng o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan omonat daftarchasini olish.
- Omonatga qo'yilgan mablag'larini o'zi yoki qonuniy vakili orqali ushbu SHartnoma va qonun hujjatlari doirasida tasarruf etish;
- Mobil telefon orqali Bankning mobil ilovasidan foydalangan holda omonat operatsiyalari to'g'risidagi, shuningdek omonat bo'yicha zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni olish.

### **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun aybdor tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan javobgar bo'ladi.

6.2. Bank omonatga qo'yiladigan pul mablag'larining miqdori va valyuta turidan qat'iy nazar uning kelib chiqishi, qonuniyligi va Omonatchining aynan o'ziga tegishliligi bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Omonatga qo'yiladigan pul mablag'larining miqdori va valyuta turidan qat'iy nazar mazkur pul mablag'larini kelib chiqishi, qonuniyligi va haqiqatdan Omonatchining aynan o'ziga tegishliligi bo'yicha Omonatchining o'zi yoki uning ota-onasi, vasiysi/qonuniy vakillari (agar omonatchi voyaga etmagan bo'lsa) javobgar.

6.3. Omonatchi omonatni rasmiylashtirish jarayonida ko'rsatilgan mobil telefon, mobil ilovalardan foydalanish yo'li bilan yoki shaxsiy kabinet orqali olingan omonat va u bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarning saqlanishi uchun javobgardir/tavakkalchilikka egadir.

### **7. BOSHQA SHARTLAR**

7.1. Omonatni qaytarish Bank mulki va aktivlari bilan ta'minlanadi hamda "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan kafolatlangan.

7.2. Agar ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan, ushbu Shartnoma bo'yicha omonatni qabul qilib olgan Bank filiali joylashgan hudud bo'yicha tegishli sudda hal qilinadi. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asoslanadilar.

7.3. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Bankning tashabbusi bilan, hamda Omonatchining tashabbusi bilan bekor qiinishi mumkin.